

YOSHLAR KAMOLOTIDA QADRIYATLARNING O'RNII

Xudayberdiyev Ilhomjon

GulDu Talabasi

A. Boyeshonov

Ilmiy Rahbar

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi globballashuv sharoitida tobora dolzarblashib borayotgan yoshlar kamoloti masalasi, tarbiya jarayonida xalqimiz milliy qadriyatlari va xalq og`zaki ijodi namunalarini o`rni yoritilgan.

Kalit so`zlar: xalq og`zaki ijodi, milliy qadriyatlar, milliy meros, afsona, ertak, yoshlar kamoloti.

Bugungi globballashuv sharoitida axborot oqimining kuchayganligi milliy ma`naviy qadriyatlarga jiddiy tahdid sifatida namoyon bo`lmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov fundamental ahamiyatga ega "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch" asarida "Agar mendan, hozirgi kunda ma`naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo`yish kerak, deb so`rashsa, men avvalom bor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o`zligini anglashi, qadimgi tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug` ajdodlarimizning merosini chuqurroq o`zlashtirishi, bugungi tez o`zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o`zgarishlarga daxldorlik tuyg`usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo`lardim" [1] -degan konseptual fikrlari bilan milliy ma`naviyatimizga tahdid solayotgan xuruj va xatarlarni bartaraf etish yo`llarini ko`rsatib berdi.

Ona zaminimiz dunyoda tarixiy boy, madaniy jihatdan e`tiborga loyiq o`lka sifatida o`z o`rniga ega. Ajdodlarimiz tomonidan boy moddiy va ma`naviy qadriyatlar yaratilgan. Xalqimizning madaniy tarixiy ildizlari, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, diniy, badiiy qarashlari va fikrlari shakllana va rivojlana borishining ilk davrlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning qadim turmush tarzi, hayoti, urf-odatlar aks ettirilgan xalq og`zaki ijodi nihoyatda boy. Avloddan-avlodga o`tib kelayotgan ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bilan tanishar ekanmiz, xalqimizga xos bo`lgan ezgulikka yo`g`rilgan orzu-umidlar, ishonch, vatanparvarlik va hayotga umid bilan qarash kabi xislatlarni ko`rishimiz mumkin. Har qanday ertak va afsonaning zamirida xalqning muayyan maqsad va intilishlari, tafakkuri, hayotga bo`lgan munosabati, avlodlar davomiyligiga bo`lgan ishonchi barq urib turadi. Ular xalq ommasining dahosi, uning talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelishi bilan bir qatorda, o`z navbatida ularning o`zi kishilarning ma`naviy, aqliy, axloqiy, axloqiy taraqqiyotiga to`rtki vazifasini ham o`tagan; mehnatni sevishga o`rgatgan, tabiatning xatarli kuchlariga qarshi kurashish va ularni oldini olishdan kishilarga yordam bergan, olamda ro`y berib turadigan murakkab hodisa va jarayonlar sir-asrorlarini bilib olishga da`vat etgan, inson, fikri, tafakkuri va xayolotini o`tmishdan kelajakka tomon tortgan, hayotni sevishga chorlagan. Xalq og`zaki ijodi namunalari bitmas-tuganmas xazina desak adashmaymiz. Jamiki san`at asarlari va madaniyat yodgorliklarini hech ikkilanmay inson ko`nglidagi shodlik va quvonchning, g`am va anduhning ifodasi, inson aql-idroki diniy qomusi, bitmas-tuganmas hikmatlar xazinasini, deb aytish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotining eng qadimgi turlaridan biri – mifdir. Bu, ayniqsa, “Avesto”da ifodalangan yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya dunyoning boshqa xalqlarida bo'lganidek, bizning miflar uchun ham xarakterlidir. Qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda yomonlik olamiga esa Axriman boshchilik qiladi, baxt va baxtsizlik, hayot va mamot shu qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash va uning oqibatlariga bog'liq. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi jangu jadallar ezgulik uchun kurashadigan Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, obrazida va baxtsizlik timsoli bo'lgan Axriman, dev, ajdar, jinlar bilan bog'liq miflarda o'z ifodasini topgan.

Ko'pchilik Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham qadimda Yer, osmon, quyosh, yulduz va sayyoralar haqida kosmogonik miflar vujudga kelgan. Ularda insonlarning tabiiy muhit, koinot, samoviy hodisalar haqidagi o'y-fikrlari, hayolotlari ifodalangan. Insonlar taqdiri, qismatini yulduzlarga qarab bashorat qilish mumkinligi, baxt yulduzi haqida qanchadan-qancha afsonalar va rivoyatlar yaratilgan. Mifologiyada insonlarga rizq beradigan er, nur va issiqlik beradigan osmon benihoya e'zozlangan, ota Quyoshga, ona esa oyga qiyoslangan.

Markaziy Osiyoda bir necha ming yillar osha yuzaga kelgan tarixiy taraqqiyot jarayonida mif va afsonalar ijodiy qayta ishlangan, yangi-yangi voqea va ma'lumotlar, fikr-tushunchalar va g'oyalar bilan boyib, takomillashib insoniyat ma'naviy madaniyatiga hissa bo'lib qo'shilgan.

Shuningdek, dehqonchilik, Navro'z ayyomi bilan bog'liq qadriyatlar marosimlar tizimi sifatida shakllanganki ularda xalqimizning turmush-tarzi, orzu-umidlari, olamga va tabiatga bo'lgan qarashlari o'zining ifodasini topgan. Xulosa o'rnida qadriyatlarning inson kamolotiga ta'sirini quyidagi jihatlarini qayd etish mumkin: Birinchidan, qadriyatlar asrlar davomida shakllangan, o'zida shu xalqning mentalitetini ifoda etadigan, vaqtning sinovidan o'tgan barcha ijobiy, pozitiv axborotlar majmuidir;

Ikkinchidan, qadriyatlar xalqning ma'naviy boyligining negizi, ajdodlarning bebaho merosi, har bir xalqning o'ziga xosligi, milliyligini ko'rsatib turuvchi ko'zgudir; Uchinchidan, qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadigan, ular ruhiyati va mentalitetining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, o'zlikni anglashning muhim vositasi; To'rtinchidan, qadriyatlar bugungi globallashuv sharoitida, jamiyat ma'naviyatiga tahdidlar kuchaygan bir davrda yoshlarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoya qilishda unga qarshi tura oladigan mustahkam himoya qurolidir.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008, 17-b.
2. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.
3. Mustafayevich, B. A. (2021). Use of Fiction in the Formation of the Worldview of Youth. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(5), 37-40.
4. Karimova, S. (2022). MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MEROSIMIZNING ORNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 485-488.
5. Усманова, Х. М. (2022). БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА ШАРҚОНА АХЛОҚНИНГ ЎРНИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(2), 51-57.
6. Мавлянов, У. Н. (2021). ALI SAFIY AXLOQ QOIDALARIGA AMAL QILISHNING AHAMIYATI HAQIDA. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (1).